

## LEYSHMANIOZ- XAVFLI KASALLIK

***Djumayeva Mahfuza Kayumovna***

*Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat tibbiyot institutining  
Tibbiy kimyo kafedrası assistenti, [dmahfuza51@gmail.com](mailto:dmahfuza51@gmail.com)*

***Haydarova Hulkar Axtamjon qizi***

*Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat tibbiyot institutining  
Tibbiy kimyo kafedrası assistenti, [hulkarhaydarova97@gmail.com](mailto:hulkarhaydarova97@gmail.com)*

***Abdullayeva Shodiya Abror qizi***

*Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat tibbiyot institutining  
Biotibbiyot fakulteti farmatsiya turlari bo'yicha yo'nalishi talabasi,  
[abdullayevashodiya7@gmail.com](mailto:abdullayevashodiya7@gmail.com)*

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada odam va hayvonlarda uchradigan xavfli kasallik to'g'risida ma'lumot beramiz. Bu kasallikning uchrash mintaqalari, tirik organizmga yuqish yo'lari, uning aynan tarqatuvchisi haqida aytib o'tamiz. Kasallikning qanday bosqichlarda kechishi uning davolash usullariga e'tibor qaratamiz.

**Kalit so'zlar:** leishmanioz, iskaptopar, xivchinlilar, knetoplastidlar, "yomon yara", visseral leishmanioz, moskit.

Leyshmaniya- bir hujayrali, triponosomalarga bir muncha o'xshash tuzilgan kinetoplastidlar turumiga mansub parazit organizmlar hisoblanadi. Ular hujayra ichida parazitlik qilganidan xivchin hosil qilmaydi, harakatsiz bo'ladi. Bu parazitlar nihoyatda kichkina (3-7 mkm) ovalsimon hujayrasida bitta yadrosi va kinetoplast bo'ladi. Morfologik jihatdan leishmaniyalar ikki xil shaklda: hujayra ichida tashuvchilarning tanasida –xivchinsiz hamda sun'iy usulda o'stirilganda xivchinli ko'rinishda yashaydi. Ular yuzga keltiradigan kasallik turi bu-leishmanioz nomi bilan yuritiladi. Ushbu parazit asosan tropik va subtropik iqlimli mintaqalarda keng tarqalgan. Iskaptoparlar bu kasallikning tarqatuvchisi hisoblanadi. Leyshmaniya teri hamda ichki a'zolarida parazitlik qiladi. Shuning uchun ham ikkita kasallik guruhi farqlanadi: teri leishmaniozi hamda visseral leishmanioz.

Bu kasallikning nomi uni aniqlagan olim ingliz vrachi U.Leyshman nomi bilan yuritiladi.

Teri leishmaniozida mahalliy patologik o'zgarishlar kuzatiladi, ba'zida shilliq pardalar ham shikastlanadi. Leyshmaniozning hayot siklidagi fazasi 2 xil shaklga ega: Promastigot: oldingi flagellum bilan cho'zilgan shakli. U hujayradan tashqarida va vector ichida (chivin) ko'payadi. Amastigot: juda qisqa flagellumning sferik shakli. U – umurtqali hujayralar ichida ko'payadi.

Leyshmaniozning asosiy tashuvchisi kemiruvchi va uy hayvonlaridir. Teri leishmaniozi- endemik parazitlar yuqumli transmissiv kasallik bo'lib, uning vujudga kelishi uchun albatta infeksiya odam yoki hayvondan (rezervuardan) moskit (infeksiya tashuvchi) qon bilan birga kasallik qo'zg'atuvchisini yutib olishi kerak va keyinchalik bu infeksiya tashuvchi sog' odamni chaqib, unga yuqtirishi kerak. Moskitning qon

so'rib terini jarohatlagan joyida keyinchalik inkubatsion davr o'tib kasallikka mos toshmalar-leyshmaniomalar paydo bo'ladi. MOSKIT bir chaqqanda sakrab-sakrab terining bir necha joyidan qon so'radi va har chaqqan joyida leishmanioma yuzaga kelib ; bemor terisida bittadan bir necha yuztagacha leishmanioma yuzaga keladi. Qishloq turida 2-3 haftalik inkubatsion davrdan keyin, terida birinchi kuni o'tkir yallig'lanish bilan kechadigan tugun yoki do'mboqchalar bilan boshlanishi mumkin. 1-2 hafta o'tgach leishmaniomaning markazidan nekroz hosil bo'lib bu yerda notekis chuqur chegarali yara vujudga keladi. Yaraning shakli noto'g'ri oval bo'lib ,notekis tubi sarg'ish kulrang nekrotik parda bilan qoplangan bo'ladi. Paypaslaganda yara tagida va yaqin atrofida xamirsimon bo'sh infiltrat aniqlanadi.

1898-yilda Toshkent harbiy gospital shifokori P.F.Borovskiy tomonidan kasallik qo'zg'atuvchisi aniqlangan. Borovskiydan behabar holda ingliz olimlari Leishman va Donovan visseral leishmaniozi qo'zg'atuvchisini aniqlaganlar.

Leishmaniomadan bir necha santimetr uzoqlikda mayda tugunchalar paydo bo'ladi. Yomon yara deb ataluvchi ushbu kasallikning shahar va qishloq turlari farqlanadi. Qishloq turida yaralar kattaligi 4-6 sm va undan kattaroq bo'lib atrofida ko'tarilib yurgan valiksimon Infiltrat (halqa) bilan ajralib turadi. Vaqt o'tgach yara nekrozlardan tozalanib , ustida baliqning qizil tuxumlarini eslatadigan granulyatsiyalar rivojlanadi.

Yara o'rnida paydo bo'lgan chandiqlik ko'p yillar o'tsa ham yoqolib teri bn birikib ketmaydi va bemorning leishmanioz bilan kasallanganini ko'rsatib turadi. Terining bu qismi chandiqlik shtamp qo'yilgandek aniq chegarali ,usti tekis va yaltiroq chegara qirrasini notekis tuzilgan bo'ladi.



Qishloq turi sinonimlari: “ikkinchi tip”, “o'tkir nekrozlanadigan”, “pendin yarasi”, “murg'ob yarasi”. Qishloq turidagi leishmaniozda vujudga keladigan yaralar bitguncha 5-6 oy vaqt o'tishi mumkin. Shahar turi leishmaniozida tuzalish davri 1 yilgacha davom etishi bu kasallikka “yil yarasi” deb nomlanishiga asos bo'lgan.

Leyshmaniozning shahar turi bilan kasallangan bemor qishloq turi bilan yana kasallanishi mumkin. Qishloq turi bilan kasallangan bemorda leyshmanioz boshqa takrorlanmaydi. Ushbu kasallik may – noyabr oylarida ko'proq uchraydi.

Profilaktikasi: 1) Kemiruvchi hayvonlar sichqonlar kovaklarini xlorpikrin sianidlar bilan zaharlash usulida yo'qotish; 2) chivinlarni ular yashaydigan suv havzalarni insektitsidlar bilan zaharlash; 3) odamlarni himoya qilish uchun maxsus vositalarni masalan pashshaxona hamda "Tayga" malhami, chinnigul yog'i, kerosin hamda ayrim efir yog'lar ishlatish.

Kasallangan odamda umrbod saqlanadigan immunitet rivojlanganini ko'zda tutib endemik hududlarga chiqib ketishni mo'ljallagan odamlarga bugungi kunda turli emlash usullari taklif qilinadi. Bemor davolanmasa ham vaqti kelib kasallik o'z-o'zidan o'tib ketishini ko'zda tutgan holda shifokor tomonidan bemorga og'riq bezovta qilsa yaralarni ikkilamchi infeksiyadan himoya qilish maqsadida antibakterial va antiseptik malhamlar bilan birga yaralarni tez bitib ketishiga qaratilgan vositalar tavsiya qilinadi.

O'zbekiston hududida asosan vohalarda ushbu parazit bn kasallanish ko'p uchraydi. Buxoro viloyati, Qashqadaryo, Surxondaryo hududida bu tur vakillari keng tarqalgan. Yosh bollardan tortib katta yoshdagi insonlar ham leyshmaniya turidan aziyat chekishadi.

Aynan leyshmaniya turi uchun oldindan emlanadigan vaksinalar yaratilmagan. Shuning uchun ham ushbu kasallik bugungi kunda ham dolzarb mavzuga aylanib kelmoqda. Visseral leyshmaniozning 2 ta shakli mavjud: hind kala-azari hamda O'rta Yer dengizi visseral leyshmaniozi.

Hind kala-azarida terining rangi qoramtir ba'zan tim qora bo'ladi. Ayrim olimlarning fikriga ko'ra bunday hodisa buyrak usti bezlari faoliyatining susayishi tufayli kelib chiqadi chunki leyshmaniyalar shu bezning po'st qismidagi makrofaglarida ham uchraydi. O'rta Yer dengizi visseral leyshmaniozida teri va shilliq pardalar oqarib, mumsimon bo'lib qoladi. Bemorning jigar va talog'i kattalashib kamqonlik hamda leykopeniya kuzatiladi. Bemor ozib ketadi. Bu kasallikni ham iskaptoparlar yuqtiradi. Jigari va talog'i shishib bemor halok bo'lishi mumkin. Kala-azar qo'zg'atuvchisi Janubiy va Shimoliy Osiyo, Italiya va Turkmanistonning ayrim hududlarida uchraydi. Professor N.I. Xodukin visseral leyshmaniozning endemic zanjiri: it-flebotomus-odam ekanligini aniqlagan. Har ikkala leyshmanioz bilan ham ko'proq bolalar kasallanadi. Kasalliklardan keyin muntazam immunitet hosil bo'ladi. Shuning uchun har bir kishi leyshmanioz bilan bir marta kasallanadi. Kasallikni aniqlash uchun to'sh suyagi ko'migi mikroskop ostida qaralib, hujayralarida leyshmaniya bor-yo'qligi aniqlanadi.



Xulosa qilib aytganda, leishmaniya kasalligi yuqumli kasallik emas ekan. Bu kasallikka qarshi kurashish uchun uni oldini olish choralarini qo'llash zarur. Kasallikdan himoyalalanish uchun chivinlarga qarshi surtma vositalaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Dadayev S. "Parazitologiya" 28-bet
2. Dadayev S. "Parazitologiya" 29-30-bet
3. Arifov S. "Teri va tanosil kasalliklari" 37-38-39-bet.
4. <https://uchquduq.uz/matbuot-xizmati/yangiliklar/item/2839-leyshmanioz-yomon-yara>
5. <https://sanepid.uz/leyshmanioz-kasalligi-va-uni-oldini-olish-chora-tadbirlari>